Annotatsiya: Ushbu maqolada soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish, soliq to'lovshilarga xizmat ko'rsatish va ta'limni yaxshilash, soliq tizimi va tartiblarini soddalashtirish, soliq to'lovshilar va soliq organlari o'rtasida samarali aloqa kanallarini rivojlantirish soliqlarni undirish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari tahlil qilingan. Bundan tashqari, adolatga bo'lgan ishonch va idrokni shakllantirish va samarali majburlov choralarini qo'llash ham muvofiqlikni oshirishi munosabatlarni rivojlantirish tendensiyalarini hamda soliq va yig'imlar bo'yicha soliq qarzdorliklar yuzaga kelishining asosiy sabablarini nazariy va amaliy jihatlar yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: soliq qarzi, boqimanda, kadastr qiymati, shaxsiy kartochka, soliq elementlari, budget salohiyati, mahalliy budget, mahalliy budgetlar xarajatlari, sud ijrosi, qarz beruvchi, kreditor, debitor.

Abstract: This article aims to improve the mechanism of tax collection, improve service and education for taxpayers, simplify the tax system and procedures, develop effective communication channels between taxpayers and tax authorities, and improve the mechanisms of tax collection. In addition, the theoretical and practical aspects of the formation of trust and perception of justice and the use of effective coercive measures also increase compliance, the trends in the development of relations, and the main reasons for the occurrence of tax arrears on taxes and fees.

Key words: tax arrears, property, cadastral value, personal card, tax elements, budget capacity, local budget, costs of local budgets, judicial execution, lender, creditor, debtor

Аннотация: Целью данной статьи является усовершенствование механизма сбора налогов, улучшение обслуживания и образования налогоплательщиков, упрощение налоговой системы и процедур, развитие эффективных каналов связи между налогоплательщиками и налоговыми органами, а также усовершенствование механизмов сбора налогов. Кроме того, теоретические и практические аспекты формирования доверия и восприятия справедливости, применение эффективных мер принуждения также повышают соблюдение требований, тенденции развития отношений и основные причины возникновения налоговой задолженности по налогам и сборам

Ключевые слова: налоговая задолженность, имущество, кадастровая стоимость, личная карта, налоговые элементы, бюджетная обеспеченность, местный бюджет, расходы местных бюджетов, судебное исполнение, кредитор, кредитор, должник

KIRISH

Davlatimizning hozirgi kundagi tadbirkorlik va kishik biznesni qo'llab-quvvatlash hamda ular faoliyatini erkinlashtirish jarayonida turli tekshirishlarni kamaytirish, soliqlar va yig'imlarning ular faoliyatiga ta'sirini kamaytirish, ya'ni mulkshilik shaklidan qat'iy nazar har qanday xo'jalik subyekti to'layotgan solig'i unga to'la-to'kis iqtisodiy erkinligini ta'minlashga asos bo'lishiga erishishi bugungi kundagi soliqqa tortish tamoyillarining eng asosiysi ekani hech kimga sir emas. Mustaqillikka erishgan dastlabki yillarimizdanoq, qarzdorlikning, ayniqsa, soliq qarzdorlikning o'sishini oldini olishga katta ahamiyat berilmoqda. Qarz beruvshi va qarz oluvshilar, kreditor va debitorlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi huquqiy-me'yoriy asoslar yaratildi. Ko'rilayotgan qat'iy chora-tadbirlar tufayli soliq idoralarning budgetga va budgetdan tashqari maqsadli jamg'armalariga soliq summalarini undirishdagi faoligi muayyan ijobiy natijalar bermoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Hozirgi davrda O'zbekiston Respublikasi soliq ma'muriyatshiligida joriy etilgan soliqlarni undirish mexanizmini takomillashtirish yo'llari mavzusiga oid qisqacha adabiyotlar sharhini keltiramiz.

Soliq majburiyati – jismoniy shaxs, korporasiya yoki boshqa yuridik shaxsning davlat oldidagi soliq qarzining umumiy summasidir. Daromad solig'i, savdo solig'i va kapital daromad solig'i soliq majburiyatlarining barcha shakllaridir (Jonson, 2022) [1].

Soliq majburiyatining ta'rifi jismoniy yoki yuridik shaxsning davlatga soliq bo'yicha qarzi bo'lgan pul yoki qarzi miqdoridir (Jozepson, 2022). Demak, anglashilmoqdaki soliq majburiyatlari soliq to'lashdan bo'yin tovlashga qarab ketmoqda. Ya'ni ushbu tadqiqot doirasida soliq to'lashdan bo'yin tovlash tushunchasini iqtisodiy mohiyatini ochishga harakat qilamiz. Soliq to'lashdan bo'yin tovlash deganda jismoniy yoki yuridik shaxslarning soliq majburiyatlarini qonunga xilof ravishda kamaytirish maqsadida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli faoliyat tushuniladi. Soliq majburiyatlari soliq tizimlarining standart va huquqiy jihati bo'lib, soliq to'lashdan bo'yin tovlash firibgarlik yo'li bilan ushbu majburiyatlardan qochish yoki kamaytirishga qaratilgan jinoiy harakatdir[2].

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash tarix davomida hamma joyda keng tarqalgan. "Soliq to'lashdan bo'yin tovlash" atamasi soliqlarning adolatli ulushini to'lashni istamaydiganlar tomonidan keng ko'lamli faoliyatni o'z ichiga oladi (Ovusu va boshq., 2019). Daromadni kamaytirib ko'rsatish, chegirmalarni ortiqsha ko'rsatish va moliyaviy hujjatlarni manipulyasiya qilish soliq to'lashdan bo'yin tovlash strategiyasining misolidir (Ozili, 2020). Shunga qaramay soliq to'lashdan bo'yin tovlash natijasida yo'qotilgan daromad miqdori har qanday mamlakatda katta bo'lishi mumkin. [3].

Ko'pgina soliq to'lashdan bo'yin tovlash bo'yicha tadqiqotlar individual xatti-harakatlarni aniq kontekstda ko'rib chiqadi (Alm va boshq., 2019). Axloqiy, ishonsh, munosabat, idrok, niyat, xabardorlik, madaniyat, dindorlik, bilim va ta'lim kabi individual omillarga bog'liq. Shaxsiy daromad solig'i bu xatti-harakatlar ko'rib shiqiladigan eng keng tarqalgan ob'ektiv bo'lib, soliq to'lashdan bo'yin tovlash bo'yicha eng nazariy va empirik ishlar shaxsiy daromad solig'iga qaratilgan (Efeeloo va Dik, 2018). Jismoniy shaxslar o'z daromadlarini kam hisobot berish, chegirmalarni, imtiyozlar yoki kreditlarni ortiqcha ko'rsatish, soliq deklarasiyasini o'z vaqtida topshirishga e'tibor bermaslik yoki hatto soliq to'lamaslik uchun ayirboshlashda qatnashish orqali daromad solig'ini to'lashdan qochishlari mumkin. Boshqa tomondan bunday xatti-harakatlar, albatta, turli soliqlarda olinishi mumkin. Ayni paytda, firmalar, masalan, jismoniy shaxslar shaxsiy daromad solig'ida bo'lgani kabi daromadlarni kam hisobot berishi, chegirmalarni bo'rttirib ko'rsatishi yoki yuridik shaxslarning daromad solig'i bo'yicha soliq deklarasiyasini taqdim etmasligi mumkin[4].

Adabiyotda iqtisod bilan bog'liq omillar soliq stavkasi, moliyaviy cheklovlar, daromad darajasi, soliq yuki, korrupsiya, iqtisodiy tuzilma, audit, jarima va ishsizlikdir. Rishardson (2016) soliq to'lashdan bo'yin tovlashda iqtisodiy omillarga qaraganda iqtisodiy bo'lmagan omillar ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Keyinshalik korrupsiya va soliq to'lashdan bo'yin tovlash keng tarqalgan muammolar sifatida tavsiflanadi. Korrupsiya – hokimiyat va vakolatli shaxs yoki korporasiya tomonidan noqonuniy afzalliklarga ega bo'lish yoki hokimiyatni shaxsiy manfaat uchun suiiste'mol qilish maqsadida amalga oshiriladigan insofsiz yoki jinoiy huquqbuzarlikdir (Khlif va Amara, 2019). Nihoyat, ishsizlik ma'lum yoshdan oshgan, haq to'lanadigan ishda yoki mustaqil ish bilan band bo'lmagan, lekin ayni paytda ish qidirayotganlar sifatida aniqlanadi (Tabandeh va Tamadonnejad, 2015). Tadqiqotlarga ko'ra, ishsizlik yashirin iqtisodiyotning asosiy manbai hisoblanadi. [5].

Soliq to'lashdan bo'yin tovlash bo'yicha eng so'nggi o'rganilganlar tomonidan yuqorida qayd etilgan iqtisodiy va noiqtisodiy omillardan tashqari boshqa omillar ham qo'llaniladi. Adabiyotlarni ko'rib chiqish davlat xizmatlarini raqamlashtirish, korporativ ijtimoiy mas'uliyat va ma'lumot tarqatishning ta'siri kabi ba'zi o'zgaruvchilarni taqdim etadi. Birinchidan, butun dunyo bo'ylab hukumatlar so'nggi o'n yilliklarda internet texnologiyasi davlat xizmatlarini soddalashtirishi va ularning samaradorligini oshirishi mumkinligini tushunib, o'z aholisi bilan aloqa qilish uchun internetdan foydalanishda xususiy sektorga ergashdilar (Uyar va boshq., 2021). (Montenegro, 2021). Nihoyat, hushtakboz xususiy, davlat yoki davlat tashkiloti doirasida noqonuniy, axloqsiz, noqonuniy, xavfli, firibgarlik yoki davlat mablag'larini suiiste'mol qiluvshi bilim yoki harakatni oshkor qiladigan kishidir. Hushtakbozlik tizimlarini joriy qilish auditdan o'tish ehtimoliga noaniqlik qo'shish orqali aniqlash imkoniyatini oshiradi (Masslet va boshq., 2019). [6].

TAHLIL VA NATIJALAR MUHOKAMASI

Soliq qarzini vujudga kelishi bu xo'jalik yurituvchi subyektlar yoki yakka tartibdagi tadbirkorlarning hisoblangan soliqlar bo'yicha budjet va budjetdan tashqari jamg'armalarga o'z vaqtida to'lanishi lozim bo'lgan pul mablag'larining muddatidan o'tib to'lanishi yoki umuman to'lanmasligi sabab bo'ladi. Soliq to'lovshining yoki soliq agentining soliq qarzi barcha soliqlar bo'yicha ham, ularning har biri bo'yicha alohida-alohida ham aniqlanishi mumkin. Soliq qarzini to'lash, shu jumladan, uni soliq organlari tomonidan undirish chog'ida to'lash quyidagi tartibdagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- 1) soliqlar summasi;
- 2) hisoblangan penyalalar;
- 3) jarimalar.



Quyidagilar unga ta'sir etuvchi omil bo'lishi mumkin:

- o'zaro moliyaviy xo'jalik munosabatda bulgan xo'jalik subyektlari tomonidan to'lov intizomiga rioya qilmaslik va buning oqibatida debitorlik, kreditorlik qarzlarning oshib ketishi;
- xo'jalik subyektning mahsulotiga (bajarilgan ish va xizmatlarga) iste'mol talabining keskin o'zgarishi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning (bajarilgan ish va xizmatlarning) sifati buyurtmashini yoki bozorni talabiga javob bermasligi;
- soliq to'lovchi tomonidan budjet oldida soliq qarzini vujudga kelishining eng asosiy sabablaridan biri – korxonaning moliyaviy holatining barqaror emasligi, shu jumladan, debitorlik va kreditorlik qarzlarning oshib borishidir.

Soliq qarzining yuzaga kelish sabablari quyidagilar:

- xo'jalik yurituvshi subyektlar va yakka tartibdagi tadbirkorlik xufyona faoliyat maqsadida tashkil etilganligi;
- soliq madaniyatining to'liq shakllanmaganligi yoki majburiyatni lozim darajada bajarmaslik;
- korxonada hisobning sifatsizligi yoki uning mas'ul shaxslarining yetarli bilim va ko'nikmaga ega emasligi (tajribasizligi);
- soliq yukining og'irligi yoki qasddan soliq to'lamaslik;
- korxonaning debitor va kreditor qarzdorliklari bo'yicha to'lov muddatini o'tishi hamda hisobraqamda mablag'ning etarli emasligi;
- soliq ma'muryatchiligi hamda soliq qonunshiligidagi kamchiliklar;
- boshqa fors-major holatlar hamda soliq to'lovchi (mas'ul shaxs)ning hayoti bilan bog'liq o'zgarishlar (kasallik, o'lim va h.k.)

Soliq qarzdorliklarining vujudga kelishining eng asosiy sabablaridan biri – bu soliq to'lovchilarning moliyaviy ahvoli tanglashishidir. Korxonalarning moliyaviy holati yomonlashuviga esa yuqori soliqqa tortish darajasi (soliq yuki) bevosita, ham bilvosita ta'sir qiladi.

Soliq to'lashning muddatini keyinroq muddatga ko'chirish soliqni to'lash muddatini o'zgartirish deb e'tirof etiladi. To'lanishi lozim bo'lgan umumiy soliq summasiga yoki uning bir qismiga nisbatan, qarz summasiga foizlar hisoblangan holda, soliq to'lash muddatini o'zgartirish mumkin. Soliq to'lash muddatini o'zgartirish uni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash shaklida amalga oshiriladi. Soliq to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash, shu soliq bo'yicha tegishli biryola yoki bosqichma-bosqich qarz summasini to'lagan holda ushbu soliqni to'lash muddatini o'zgartirishdan iboratdir. Soliq to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash soliqni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish to'g'risida qaror qabul qilinguniga qadar yuzaga kelgan qarz summasiga yoki kelgusida yuzaga keladigan qarz summasiga nisbatan berilishi mumkin. Soliq to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash

1 yildan oshmagan muddatga beriladi. Soliq to'lash muddati o'zgartirilishiga talabgor shaxs soliq to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash to'g'risida ariza berishga yoxud bu haqda xabardor qilishga haqlidir. Bunday ariza bir yoki bir nechta soliqqa nisbatan berilishi mumkin. Manfaatdor shaxsning soliq to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash haqidagi arizasini ko'rib chiqish chog'ida soliqni to'lash muddatlarini o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilishga vakolatli organ mazkur shaxsga u bilan kelishilgan holda qabul qilinishi mumkin bo'lgan kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lashning boshqa shartlarini taklif etishga haqli.

Soliq to'lash muddatining o'zgartirilishi soliq to'lash bo'yicha mavjud majburiyatlarni bekor qilmaydi va yangi majburiyatlarni vujudga keltirmaydi. Vazirlar Mahkamasi, Soliq qo'mitasi, Davlat Bojxona qo'mitasi va Mahalliy hokimiyati organlarining qaroriga ko'ra soliq to'lash muddatini o'zgartirish, mol-mulk garovi, kafillik yoki bank kafolati bilan ta'minlanishi mumkin. Penya va jarima to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati berilganda ham qo'llaniladi.

Mavjud qoidalar soliq agentlariga, soliqni to'lovchi, soliq bo'yicha bo'nak to'lovlarini to'lash bo'yicha foizsiz to'lashni kechiktirishning yoki bo'lib-bo'lib to'lashni qo'llashning va alohida sharoitlarda soliq majburiyatlarini bajarishning vaqtinchalik tartibi bo'yicha nazarda tutilgan hollarga nisbatan tatbiq etilmaydi.

Soliqni to'lash muddatini o'zgartirishni istisno etadigan holatlar.

Agar manfaatdor shaxsga nisbatan quyidagi shartlardan hech bo'lmaganda bittasi bajarilayotgan bo'lsa, soliqni to'lash muddati o'zgartirilishi mumkin emas.

1) ko'rsatilgan holatlar mavjud bo'lgan taqdirda, soliq to'lash muddatini o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilinishi mumkin emas, qabul qilingan qaror esa bekor qilinishi lozim, soliq to'g'risidagi qonunchilikning buzilishi bilan bog'liq jinoyat alomatlarini bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atilgan bo'lsa;

2) ushbu shaxs bunday o'zgartirishdan soliq solinishi lozim bo'lgan o'z pul mablag'larini yoki boshqa mol-mulkini yashirish uchun foydalanishini yoki ushbu shaxs doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketishini taxmin qilish uchun yetarlicha asoslar mavjud bo'lsa;

3) ushbu shaxs soliqni to'lash muddatini o'zgartirish to'g'risida ariza bergan kundan oldingi 3 yil mobaynida, Vazirlar Mahkamasi, Soliq qo'mitasi, Davlat Bojxona qo'mitasi va Mahalliy hokimiyati organlari tomonidan soliq to'lash muddatini tegishli o'zgartirish shartlari buzilganligi munosabati bilan ilgari berilgan kechiktirish yoki



bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatining amal qilishini tugatish to'g'risida qaror chiqarilgan bo'lsa;

4) bankrotlik to'g'risida ish qo'zg'atilgan bo'lsa;

5) manfaatdor shaxs (tadbirkorlik subyekti) Soliqni to'lash bo'yicha kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish to'g'risidagi ariza u tomonidan tegishli vakolatli organga beriladi.

Tadbirkorlik subyektlari umumiy maydoni 1 000 kvadrat metrdan ortiq bo'lgan er uchastkalariga va (yoki) binolar hamda inshootlarga bo'lgan mulkiy huquq olinganda mol-mulk va yer soliqlarni to'lashga taqdim etilgan xabarnoma asosida xabardor qilgan holda va garov ta'minotisiz 6 oy muddatga kechiktirish huquqiga ega. Bunda kechiktirilgan soliqlar summasi davlat ro'yxatidan o'tkazilgan er uchastkalarining, binolarning va inshootlarning qiymatidan va (yoki) maydonlaridan kelib chiqqan holda hisoblab chiqarilgan soliqlar miqdorida belgilanadi.



1-rasm. Soliqlarni to'lashni kechiktirish yoki bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish shartlari¹.

Soliq to'lovchilarning konsolidasiyalashgan guruhi bo'yicha foyda solig'iga nisbatan soliq to'lash muddatini o'zgartirish amalga oshirilmaydi. Soliqlarni to'lash muddatlarini o'zgartirish to'g'risida qaror qabul qilishga vakolatli organlar 1-rasmda keltirilgan organlar soliqlarni to'lash muddatlarini o'zgartirish to'g'risida qarorlar qabul qilish vakolatiga ega organlardir.

Soliqlarni tizimlashtirishda, soliq imtiyozlarini soddalashtirishda va soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarini minimallashtirishda soliq qonunchiligiga bo'lgan yondashuvlarni tubdan qayta ko'rib chiqish zarurligi ayon bo'ladi. 2000-yilning boshidan soliq sohasida mamlakat siyosatidagi institusional islohotlarga moslashtirilgan soliq sohasida sifatlil o'zgarishlar ro'y berdi. Ushbu o'zgarishlarning strategik yo'nalishi butun soliq tizimining samaradorligini oshirish maqsadiga yo'naltirilgan bo'lib, bu soliq yukining izchil pasayishi va soliq ma'muriyatchiligining samarali tizimini shakllantirishni nazarda tutadi.

Yuridik shaxslarning soliq qarzdorligi, ma'lum davr oralig'idagi ta'sir etish darajasiga bog'liq ravishda, bir qancha sabablar tufayli yuzaga keladi. Shunga ko'ra soliq qarzdorligining yuzaga kelish sababini tahlil qilish nafaqat soliq qarzini o'sish sur'atlarini tasniflashga, balki ularni bartaraf etish uchun chora-tadbirlarni belgilashga imkon yaratadi. Albatta, ushbu chora-tadbirlar natijasi soliq qarzdorligini batamom tugatishga olib kelmasada, biroq aynan shu chora-tadbirlar bilan soliq qarzdorligini undiruvchi organlarning xatti-harakatlari uyg'unligi ostida soliq qarzdorligini ma'lum darajada qisqartirish imkoniyati yuzaga kelishi mumkin.

Xorijlik ayrim olimlarning fikricha, quyidagi omillar ta'siri ostida soliq qarzdorligi paydo bo'lishi mumkin :

- ijtimoiy-siyosiy va tarixiy – bu holat ayrim guruhlar yoki hududlarda siyosiy boshqaruvga noroziliklarning paydo bo'lishi, soliq madaniyatining pastligi va boshqa ijtimoiy holatlar bilan izohlanadi;

- tashkiliy-huquqiy – bu holat soliq ma'murchiligi va huquqiy bazaning takomillashmaganligi, soliq yukining og'irligi yoki bir xilda taqsimlanmaganligi bilan izohlanadi;

- iqtisodiy – bu holat umumiy jihatdan iqtisodiy holatdagi o'zgarish bilan izohlanadi.

1 Муаллиф томонидан тайёрланди.



2-rasm. Soliқ qarzdorligining paydo bo'lishi sabablari².

Bu asosan 2 guruhga bo'linadi:

Birinchi guruh – umumiy iqtisodiyotdagi tizimning beqarorligi. Yetarli darajadagi pul massasining yo'qligi, inflyasiya darajasining yuqoriligi, ishlab chiqarishning pasayishi, xarid qobiliyatining pasayishi bilan izohlanadi; Ikkinchi guruh – o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan ishlab chiqarish va tovarlar oldi-sotdisiga bog'liq bo'lgan holatlar hamda faqat ayrim xo'jalik yurituvchi subyektlarga taalluqli bo'lgan texnik-ishlab chiqarish bilan bog'liq holatlar.

Xorijlik olimlarning fikri bo'yicha yuridik shaxslar soliq qarzdorligining paydo bo'lishini uch guruhga bo'lib o'rganish lozim. Bunda, birinchi navbatda, iqtisodiy, tashkily-huquqiy xarakterdagi va ma'muriy ruhiy sabablar keltirilgan (2-rasm).

Ichki (tarmoq) sohaviy sabablarga iqtisodiyotning etakchi sohalarida yangi innovasion siyosat yuritilmasligini keltirish mumkin. Buning natijasida esa shu sohadagi ishlab chiqarish yangi jihozlar bilan modernizatsiya qilinmay qoladi va ishlab chiqarilayotgan tovar (ish va xizmatlar) bozorda o'z o'rnini hamda xaridorlarini yo'qotadi. Shu sababli ushbu soha inqirozga yuz tutadi va hisoblangan soliqlarni to'lay olmasligi qarzdorlikning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Mikroiqtisodiy sabablarga yuridik shaxslarni boshqarishda ichki rahbarlikning qoniqarsizligi, marketingni yaxshi o'zlashtirmaslik, hamkorlarni tanlay bilmaslik va moliya-xo'jalik faoliyati bo'yicha buxgalteriya hamda soliq hisobining past darajada yuritilishi, kuchsiz moliyaviy nazoratning o'rnatilganligini keltirish mumkin. Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi o'rnini yuqori bo'lib bormoqda. Shu bilan birga, ular tomonidan foydani maksimalashtirish nuqtai-nazaridan soliq to'lovlarini rejalashtirishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning uchun ular mustaqil ravishda soliq bazasini turli yo'llar bilan kamaytirishni ko'zlamoqdalar. Albatta, bu masalada ma'lum haq evaziga "soliq maslahati" yoki "auditor" tashkilotlari xizmatlaridan foydalanuvchi, yirik aylanma mablag'iga ega subyektlar ham topiladi. Aksariyat hollarda esa kichik biznes subyektlari mustaqil ravishda bu ishlarni amalga oshirib, natijada qo'pol xatoliklarga yo'l qo'yadi. Yo'l qo'yilgan xatoliklar soliq tekshiruvlarida aniqlanib, ularga nisbatan qo'shimcha soliqlar hisoblanib, jarimalar qo'llaniladi.

Tashkiliy-huquqiy xarakterdagi sabablar ikki turga bo'lib o'rganiladi. Huquqiy bazaning mukammal emasligi natijasida soliq qarzini majburiy undirish bo'yicha sudlarga kiritiladigan da'volarning qondirilmasligi yoki qonunchilikdagi boshqa bo'shliqlar tufayli soliq qarzini undirish jarayoni to'xtatib qo'yilishi mumkin.

2 Пронин С.Б., Пронин М.С. Взыскание задолженностей по налогам с организаций. // Тематический спецвыпуск журнала «Горячая линия бухгалтера». – 2006 г. Б. 26



3-rasm. Iqtisodiy xarakterning turlari³.

Birinci navbatda iqtisodiy xarakterdagi sabablarga alohida e'tibor qaratamiz. Bu guruhga 3 turdagi sababni kiritish mumkin.

Makroiqtisodiy sabablar jumlasiga mamlakat iqtisodiyotining beqarorligi (inqiroz), mamlakat va uning ichidagi hududlarning daromad olish bo'yicha iqtisodiy sohalarining bir xilda rivojlanmasligi, aksariyat yuridik shaxslarning ishlab chiqarishdagi rentabellik darajasi tushib ketishi natijasida soliq va to'lovlarni to'lay olmasligi, og'ir moliyaviy holatning yuzaga kelishi, umumiy to'lov intizomining qoniqarsiz darajada ekanligini keltirish mumkin.

Soliq qarzini undirish tuzilmasini mukammallashmaganligini quyidagi sifatlar bilan izohlash mumkin deb o'ylaymiz. Soliq qarzini undirish tuzilmasi:

- a) tashkilotlardagi xodimlar sonining kamligi;
- b) tashkilotlarning quyi tuzilmalari, hududlardagi xodimlarning bilim va kasb mahorati hamda mehnat unumdorligining pastligi, mehnat intizomiga to'liq rioya etilmasligi;
- s) tashkilotlarning o'zaro hal etilmagan muammolari mavjudligi;
- d) texnik va texnologik jihatdan yaxshi jihozlanmaganligi bilan bog'liq.

Tashkiliy-huquqiy xarakterdagi sabablarning ayrim ko'rinishlari respublikamizning o'tgan yillardagi soliq sohasida yuz bergan ko'plab o'zgarishlarida namoyon bo'ladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida davlat soliq xizmati organlari tomonidan yuridik shaxslar soliq qarzdorligini bankdagi hisob raqamlariga inkasso topshiriqnomasi qo'yish orqali majburiy undirib olish, mol-mulki xatlovi orqali soliq qarzini qoplash mexanizmlari bevosita soliq organlari tomonidan amalga oshirilgan bo'lsa, bu jarayon ham bosqichma-bosqich liberallashtirilib hozirgi kunda jahon andozalariga tenglashtirilib borilmoqda.

Ma'naviy-ruhiy xarakterdagi sabablar esa 2 turga bo'lib o'rganiladi. Soliq madaniyatining pastligi (yo'qligi). Jamiyatdagi ayrim yuridik shaxslarning rahbar va mansabdor shaxslarining fikricha, "soliqlarni to'liq hamda o'z vaqtida to'lash" va "muvaffaqiyatli biznes" tushunchalari bir biriga teskari hisoblanadi. Aynan shu turdagi soliq to'lovchilar soliq organi tomonidan tekshirilib, ularga nisbatan qattiq jazo choralarini ko'riladi va jarimalar qo'llaniladi.

O'tkazilgan tekshiruvlar natijasida qo'llanilgan jarima va qo'shimcha hisoblangan soliqlar yoki bo'lmasa tekshiruvgacha bo'lgan muddatda yashirilgan, to'lashdan qochilgan, muddatida to'lanmagan soliqlar davlat budjetiga bir kun kelib undirib olinishi muqarrardir. Yuridik shaxslarga bankrotlik alomatlarini qo'llanilgan taqdirda ham subsidiar javobgarlik choralarini mavjudligini unutmaslik lozim.

Soliq qarzdorliklari paydo bo'lishining eng asosiy sabablaridan biri – bu soliq to'lovchilarning tang moliyaviy ahvoli bilan bog'liqdir. Korxonalarining moliyaviy holati yomonlashuviga esa yuqori soliqqa tortish darajasi (soliq yuki) bevosita hamda bilvosita ta'sir qiladi.

Bunga ta'sir etuvchi omillar quyidagilardir:

- o'zaro moliyaviy – xo'jalik munosabatda bo'lgan xo'jalik subyektlari tomonidan to'lov intizomiga rioya qilmaslik va buning oqibatida debitorlik, kreditorlik qarzlarning oshib ketishi;
- xo'jalik subyektining mahsulotiga (bajarilgan ish va xizmatlarga) iste'mol talabining keskin o'zgarishi;
- ishlab chiqarilgan mahsulotning (bajarilgan ish va xizmatlarning) sifati buyurtmachi yoki bozorning talabiga javob bermasligi;
- soliq to'lovchi tomonidan budjet oldida soliq qarzi vujudga kelishining eng asosiy sabablaridan biri – korxonalar moliyaviy holatining barqaror emasligi, shu jumladan, debitorlik va kreditorlik qarzlarning oshib borishidir. Respublikamiz ayrim olimlari fikricha, soliq qarzlarning nazariy jihatdan vujudga keladi. Mazkur keltirilgan fikrlarga, albatta, qo'shilamiz. Biroq har bir davlat va jamiyatning o'z tarixi, kelib chiqishi, strategik joylashgan o'rni, mentaliteti, demografik tarkibi ham alohida ahamiyat kasb etadi.

3 Пронин С.Б., Пронин М.С. Взыскание задолженностей по налогам с организаций. // Тематический спецвыпуск журнала «Горячая линия бухгалтера». – 2006 г. Б. 33



4-rasm. Soliq qarzdorligi paydo bo'lishining iqtisodiy moliyaviy umume'tirof etilgan sabablari⁴.

Davlatdagi siyosiy beqarorliklar uning iqtisodiyotini izdan chiqarishi turgan gap. Qolaversa, iqtisodiyotning sikllarida "iqtisodiy tushish" yoki inqiroz davrida ham soliq qarzdorligini o'sish ehtimoli katta bo'ladi.

Makro va mikro darajada bozordagi talab va taklifdagi o'zgarishlar ham soliq qarzdorligini o'sish va kamayishiga keskin ta'sir qiladi. Bu esa keyingi ketma-ketlikda valyuta kursidagi o'zgarishlar va to'lov tizimidagi yuzaga keladigan kamchiliklar bilan ham baholanadi.

Tadbirkorlik faoliyatini yuritishni yaxshi bilmaslik va korporativ soliq menejmentini tushunmaslik, tadbirkorlardagi uquqsizlik va bilimsizlik tufayli ham soliq qarzdorligi paydo bo'lishi mumkin.

Soliq qonunchiligidagi hamda soliqlarni hisoblash va undirish mexanizmidagi bo'shliqlarning mavjudligi, soliq madaniyati past bo'lgan soliq to'lovchilar uchun ham ancha qo'l keladi.

Amaliyotdan kelib chiqib, fikrimizcha, Respublikamizdagi yuridik shaxslarning soliq qarzdorligi yuzaga kelishini quyidagi sabablar bilan bog'lash mumkin:

- soliq hisobotini topshirib soliq majburiyatlarini umuman bajarilmasligi (xufiyona faoliyat va boshqalar) natijasida;
- soliq tekshiruvlari natijasida qo'shimcha soliq hisoblash yoki moliyaviy jarimalar qo'llash natijasida (xufiyona korxonalar);
- soliq majburiyatlarining kechiktirib bajarilishi natijasida;
- yuqori turuvchi tashkilotlar tomonidan mablag'lar o'z vaqtida moliyalashtirilmasligi natijasida;
- fermer xo'jaliklarining etkazib bergan hosili bo'yicha to'lovlar mavsumiy amalga oshirilishi natijasida.

Soliq qarzi yuzaga kelish omillari quyidagilar:

- xo'jalik yurituvchi subyektlar xufiyona faoliyat maqsadida tashkil etilganligi;
- soliq madaniyatining pastligi yoki majburiyatni to'liq bilmaslik;
- korxonada hisobning sifatsizligi yoki uning mas'ul shaxslarini etarli bilim va ko'nikmaga ega emasligi (tajribasizligi);
- soliq yukini og'irligi yoki qasddan soliq to'lamaslik;
- korxonaning debitor va kreditor qarzdorliklari bo'yicha to'lov muddatining o'tishi hamda hisob raqamda mablag'ning etarli emasligi;
- soliq ma'muriyatchiligi hamda soliq qonunchiligidagi kamchiliklar;
- boshqa fors-major holatlar hamda soliq to'lovchi (mas'ul shaxs)ning hayoti bilan bog'liq o'zgarishlar (kasallik, o'lim va h.k.)

Ayniqsa, muddati o'tgan qarzlarning hajmining ortib ketishi sotilgan mahsulotlar, bajarilgan ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar bo'yicha o'zaro hisob-kitobiga ta'sir etibgina qolmay, makro darajada ya'ni mamlakat iqtisodiy barqarorligiga putur etkazuvchi omil ekanligi yanada xavflidir.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Soliq qarzdorligi tan olingan taqdirda soliq qarzini undirish uchun iqtisodiy sudga ariza yoki da'vo arizasi kiritilishi shart bo'lmasligi lozim. Chunki taqdim etilgan soliq hisobotlari yoki tekshirishda hisoblangan soliq

⁴ Муаллиф томонидан хориж ва аллий адабиётлардан фойдаланган ҳолда тайёрланди.



summalariga roziligi va buning natijasida soliq qarzining vujudga kelishi nizoli emasligi sababli soliq qarzdorligi faqatgina o'rtada nizolar yuzaga kelgandagina sud orqali hal qilinishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Davlat soliq qo'mitasi ma'lumotlari. www.soliq.uz.
2. Efeeloo N. & Disk N. (2018). An Empirical Review of the Determinants of Tax Evasion in Nigeria: Emphasis on the Informal Sector Operators in Port Harsourt Metropolis. *Journal of Accounting and Financial Management*, 4(3), 1–10. <https://d1wqtxts1xzle7.scloudfront.net/63209917>
3. Johnson Janet Berry (2022) Tax Liability: Definition, Calculation, and Example. The investopedia team. October 26, <https://www.investopedia.com/terms/t/taxliability.asp>.
4. Josephson Amelia (2022) The Ultimate Guide to Tax Liability. November 16,. <https://smartasset.com/taxes/tax-liability>.
5. Masslet D., Montmarquette S. & Viennot-Briot N. (2019). San whistleblower programs reduce tax evasion? Experimental evidence. *Journal of Behavioral and Experimental Economics*, 83, 101459. <https://doi.org/10.1016/j.soses.2019.101459>.
6. Owusu G.M.Y., Bekoe R.A., Anokye F.K., & Anyetei L. (2019). What Factors Influence the Intentions of Individuals to Engage in Tax Evasion? Evidence from Ghana. *International Journal of Public Administration*, 43(13), 1143–1155. <https://doi.org/10.1080/01900692.2019.1665686>.
7. Ozili P.K. (2020). Tax evasion and financial instability. *Journal of Financial Crime*, 27(2), 531–539. <https://doi.org/10.1108/jfs-04-2019-0051>.
8. Richardson G. (2016). The Determinants of Tax Evasion: A Cross-Country Study. *Financial Crimes: Psychological, Technological, and Ethical Issues*, 33–57. https://doi.org/10.1007/978-3-319-32419-7_2.

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

